

*AQShning Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha komissiyasi (USCIRF) Davlat Departamentidan alohida va ayri tashkilotdir. USCIRF-ni AQSH Kongressi tashkil qilgan bo'lib, u AQSh hukumatining dunyo bo'ylab diniy erkinlik masalalarini kuzatadigan va prezident, davlat kotibi va Kongressga siyosiy tavsiyalar beradigan mustaqil va ikki-partiyali maslahat idorasi hisoblanadi. USCIRF-ning bu tavsiyalari bizning rasmiy mandatimiz va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarga asoslanadi. "2015-qilgi yillik hisobot" joylardagi huquqbuzarliklarni hujjatlashtirish va AQSh hukumatiga mustaqil siyosiy tavsiyalar berish masalasida maxsus vakillar va professional xodimlar amalga oshirgan bir yillik ishning kulminatsiyasidir. "2015-qilgi yillik hisobot" 2014 yil 31-yanvardan 2015-yil 31-yanvargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, ammo ba'zi hollarda bu muddatdan keyin sodir bo'lgan muhim voqealar ham eslab o'tiladi.*

## **O'zbekiston**

**Muhim xulosalar:** Dinni qattiq cheklovchi qonun va barcha mustaqil diniy faoliyatga og'ir cheklov qo'yish maqsadida amalga oshirilgan hukumat sa'y-harakatlari orqali O'zbekistonda din yoki e'tiqod erkinligining jiddiy buzilishlari davom etmoqda. Hukumat rasman belgilangan me'yorlarga muvofiq ravishda harakat qilmagan yoki davlat ekstremistik deb da'vo qilgan insonlarni, jumladan, 12000 nafar musulmonni ham qamaydi. Ushbu tizimli, ashaddiy va davomli huquqbuzarliklarga asoslanib, USCIRF 2015 yilda 1998 Xalqaro diniy erkinlik aktiga (IRFA) ko'ra, O'zbekistonni yana bir bor "alohida tashvishli mamlakat" yoki ATM (CPC) deb belgilashni tavsiya qiladi. Davlat departamenti O'zbekistonni 2006-yildan beri va so'nggi marta 2014-yil iyul oyida shunday deb belgilagan bo'lsa-da, 2009-yildan buyon noma'lum vaqtga biror jazo chorasi ko'rishdan voz kechib kelmoqda.

### **Kelib chiqishi**

Taxminan 28,7 million kishi istiqomat qiladigan O'zbekiston, Markaziy Osiyodagi sobiq Sovet respublikalari orasida aholisi eng ko'p davlat hisoblanadi. Mahalliy ma'lumotlarga ko'ra, aholining, taxminan, 93 foizi musulmon bo'lib, asosan Hanafiy sunniylardan iborat, bir foiz shialar, asosan, Buxoro va Samarqandda yashaydi. Aholining, taxminan, to'rt foizi rus pravoslavlaridir. Qolgan uch foiz aholi esa Rim katoliklari, koreys millatiga mansub xristianlar, baptistlar, lyuteranlar, adventistlar, Elliginchi kun xristianlari, Iyegova guvohlari, buddaviylar, bahoiylar, krishnachilar, shuningdek, ateistlarni o'z ichiga oladi. Taxminan, 6000 nafar ashkenazi va 2000 nafar Buxoro yahudiysi Toshkent va boshqa shaharlarda istiqomat qiladi.

O'zbekistonning 1998-yili qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni barcha diniy guruhlar huquqlarini keskin cheklaydi va aksariyati musulmon hamjamiyatning diniy faoliyati ustidan O'zbekiston hukumati nazoratini osonlashtiradi. Qonun ro'yxatdan o'tmagan diniy faoliyatni jinoyat deb hisoblaydi; diniy nashrlarning mazmuni, ularni ishlab chiqarish va tarqatish uchun rasmiy ruxsatni talab qiladi; voyaga etmaganlarning diniy tashkilotlarga a'zo bo'lishni taqiqlaydi va jamoat joylarda diniy kiyim kiyishga oddiy insonlarga emas, faqat din peshvolariga ruxsat beradi. Ko'pgina diniy guruhlar ro'yxatga olish talablariga javob bera olmaydi, chunki ularga qo'yiladigan talablardan biri 13 viloyatning kamida sakkiztasida doimiy vakolatxonga ega bo'lishdir. 2014-yilda qabul qilingan yangi senzura haqidagi batafsil yangi farmon e'tiqodni "buzadigan" yoki shaxslarni dinini o'zgartirishga rag'batlantiruvchi materiallarni taqiqlaydi.

O‘zbekiston hukumati faol ravishda rasman belgilangan me‘yorlarga mos bo‘lmagan shaxslar, guruhlar va masjidlarga yoki ekstremistik siyosiy dasturlar bilan aloqada gumon qilinganlarga bosim o‘tkazadi. O‘zbekistonda din nomidan zo‘ravonlik qiluvchi guruhlardan xavfsizlikka tahdid mavjud bo‘lgan bir paytda hukumat o‘zboshimchalik bilan ekstremizmga qarshi mavhum qonunlarni tinch din tarafdorlari va hech qanday haqiqiy tahdid solmaydigan boshqa insonlarga qarshi ishlatdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumatining mustaqil musulmonlarga qarshi keskin kampaniyasi davom etmoqda. Bu kampaniya quyidagilarga qarshi qaratilgan: Andijon shahrida 2005-yil may oyidagi noroziliklar bilan bog‘liq taqiqlangan “Akromiya” musulmonlar guruhiga a‘zolik ayblovi bilan sudlangan 23 nafar biznesmen; 231 nafar inson Andijon voqealari munosabati bilan hali ham qamoqda; 10 nafar mahbus halok bo‘lgan. O‘zbekiston hukumati Andijon fojiasidan keyin qochib ketgan o‘zbek qochqinlarini qaytarish uchun boshqa mamlakatlarga bosim o‘tkazishni davom ettirmoqda.

### **2014-2015-yillardagi diniy erkinlik sharoitlari**

**Yangi Kuzatuv Rejimi:** 2014-yil avgust oyida kuchga kirgan yangi qonun barcha oldingi maxbuslarni ichiga olgan Profilaktika Ro‘yxatini tuzib, ularga kamida bir yil uchun “Profilaktika choralari”ni belgilaydi. Qonun davlat idoralariga ro‘yxatning amal qilish muddatini bir yildan ortiq muddatga uzaytirishga va mahalliy hokimiyatga “ro‘yxatdan o‘tmagan diniy guruhlar faoliyati oldini olish” uchun norasmiy xabar beruvchilar bilan ishlashga ruxsat beradi.

**Ekstremizmga qarshi qonunlarni qo‘llash:** O‘zbekiston hukumati diniy amaliyot ustidan yoki ularning gumonlangan diniy mansubligi uchun davlat nazoratini rad etgan shaxslarni hibsga olish va 20 yil muddatgacha bo‘lgan muddatlarga ozodlikdan mahrum etishning o‘n yillik siyosatini davom ettirdi. Ularning ko‘pchiligiga adolatli sudga ruxsat etilmadik va qiynoqqa solinmoqda; ba‘zilari ruhiy kasalxonalarda ushlab turilibdi. Kuzatuvchilarning taxmin qilishicha, 12000 dan ortiq o‘zbek musulmonlari shu bilan bog‘liq ayblovlar bilan qamoqqa tashlandi. 2013-yilda, taxminan, 200 nafar din tarafdori hibsga olindi, deb xabar beradi, O‘zbekistonning Mustaqil inson huquqlari himoyachilari tashabbus guruhi. Hukumatning iddao qilishicha, hibsga olinganlarning ko‘pchiligi “vahobiy” yoki “jihodchi” deb nomlangan ekstremistik guruhlariga aloqadordir, ammo ko‘pincha zo‘ravonlik ishlatilgani yoki targ‘ib qilingani haqidagi dalillarsiz qolmoqda. Ushbu shartlar turfa xil musulmon shaxslar va guruhlar, jumladan, zo‘ravon ekstremistlar, siyosiy muxoliflar, xorijda ta‘lim olganlar va boshqalarga tegishli bo‘lishi mumkin.

2014-yilda politsiya bir necha musulmonlar, jumladan, Tojikiston fuqarosi Zuboyd Mirzorahimov va O‘zbekiston fuqarosi Zoirjon Mirzayevning mobil telefonlarida Qur‘on oyatlari va go‘yoki “ekstremistik” va‘zlarni topganidan so‘ng, ular besh yillik qamoq jazosiga hukm qilindi; 2014-yil iyul oyi holatiga ko‘ra, Tojikiston fuqarosi hukm oq‘ilganidan so‘ng o‘n oy mobaynida hech kim bilan aloqa qilishga ruxsat berilmay. Toshkent tergov qamoqxonasida ushlab turildi.

2015-yil fevral oyida O‘zbekiston hukumati olti nafar mashhur vijdon tutqini bo‘lgan musulmon mahbusni, jumladan, taniqli sport jurnalisti va musulmon sharhlovchisi Xayrulla Hamidovni afv qildi. Ozodlikka chiqarish sharti sifatida Hamidov prezident Islom Karimov nomiga uzrnoma

yozihi kerak edi; shuningdek, u noma'lum muddatga O'zbekistonni tark etishi mumkin emas. Ozod Yevropa/Ozodlik radiosiga bergan o'zbek tilidagi intervyusida Hamidov, xabarlarga ko'ra, o'zi yashagan qamoq sharoitini maqtagan. Mustaqil "Forum 18 Yangiliklar xizmati" bergan ma'lumotga ko'ra, qolgan besh mahbus – Rashid Sharipov, Akmal Abdullayev, Ahmad Rahmonov, Ahmadjon Primqulov va Qudratullo (famiyasi noma'lum) – o'z aybini tan olib, tavba va istig'for qilib, prezident Karimovdan uzr so'raganidan so'ng afv etildi. Ular turk musulmon ilohiyotchi Said Nursiyning asarlarini o'rganish uchun uchrashgani uchun ozodlikdan mahrum etildi. Boshqa diniy mahbuslar O'zbekistonda mart oyida bo'lib o'tadigan prezident saylovi arafasida afv qilingani haqida tasdiqlanmagan xabarlar bor.

O'zbekistonning hukumat tanqidchisi sifatida tanilgan taniqli o'zbek imomi Shayx Abdulloh Buxoriy radikal islomchi sifatida qaralib, 2014-yil 10-dekabrda Istanbulda otib o'ldirildi. Ozod Yevropa/Ozodlik radiosiga ko'ra, 2014-yilda prezident Karimov din peshvolarini o'zbeklarni islomiy xalifalik o'rnatish tarafdorlari ta'siridan himoya qilishga chaqirdi. O'zbekiston hukumati ekstremizmga qarshi haddan tashqari keng qamrovli kurash siyosatini oqlash uchun davlat televideniyesidan ham foydalandi. Masalan, 2014-yil so'nggida, O'zbekiston davlat televideniyesi sotqinlikning yangi usulini da'vo qilingan yarim soatlik dasturni namoyish qildi. Ko'rsatuv Norvegiyada qochqin maqomiga ega bo'lgan, lekin O'zbekistonga qaytgan va hibsdan olingan olti nafar O'zbekiston fuqarosi haqida edi. Ko'rsatuvda ular nafaqat diniy ekstremistlar bo'lgani, balki Osloda bir imom boshchiligida maxfiy diniy ekstremistik tashkilotga qarashli besqolboz insonlar ekani haqida asossiz da'volar qilindi.

***Qamoqda saqlash sharoitlari:*** O'zbekistonning "Ezgulik" inson huquqlari guruhi xabar berishicha, ayol mahbuslar, jumladan, bir necha diniy e'tiqodi uchun qamalangan qiynoqqa solingan. O'zbekiston hukumatining bayonotlariga qaramay, qamoqlarda, dastlabki tergov va politsiya uchashtalarida qiynoqlar davom etmoqda va xabarlarga ko'ra, ular zo'rvonlik yoki unga tahdid, jumladan, jinsiy zo'rlash va jabrlanganlarning nafas olishini gaz niqoblari bilan bo'g'ib qo'yishni o'z ichiga oladi. Aytilishicha, qiynoq kattalar va bolalarni ularning diniy qarashlaridan qaytarishga majburlash yoki aybini tan oldirish uchun ishlatiladi. Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi 2013-yil boshida O'zbekistondagi o'z ishini rasmiy hamkorlik yo'qligi sababli to'xtatib qo'ydi. BMTning Qiynoqlarga qarshi qo'mitasi murojaatiga qaramay, musulmon Xayrullo Tursonovni Qozog'iston O'zbekistonga qaytarib berdi; 2013-yilning iyun oyida 16 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi, u hozir sil kasallari lagerida. "Forum 18 Axborot xizmati"ning xabariga ko'ra, 37 yoshli Nilufar Rahimjonova 2014-yilning sentabr oyida Toshkent shahri yaqinidagi ayollar mehnat lagerida vafot etdi. U o'n yillik qamoq muddatining uch yilini o'tab bo'lgan edi. Xabarlarga ko'ra, u musulmon ilohiyotchilar bo'lgan eronlik eri va Tojikistonda yashovchi otasini jazolash uchun qamalangan.

***Musulmonlarga nisbatan cheklovlar:*** O'zbekiston hukumati islomiy tashkilotlarni qattiq nazorat ostida tutadi va ularning mustaqil amaliyotini taqiqlaydi. Hukumat Farg'ona vodiysida bir necha masjidlarni musodara qildi va bolalarning masjidlkarga borishini taqiqlab qo'ydi. Hukumat nazoratidagi Musulmonlar Diniy idorasi imomlarning o'qishi, ularni tayinlash va lavozimidan chetlatishni nazorat hamda va'z va islomiy adabiyotlar tarkibini senzura qiladi. Bunday cheklovlarga qaramay, ro'yxatdan o'tgan rasmiy masjidlarga ko'pchilik qatnaydi, va mamlakatning sobiq bosh muftiysi Muhammad Sodik Muhammad Yusuf O'zbekistondan

tashqaridagi inson huquqlari bo'yicha hisobotlarni o'z ichiga olgan mashhur veb-saytga rahbarlik qiladi.

**Musulmon bo'lmaganlarga qarshi ayblovlar:** Hukumat ko'pincha Injilchi protestant va Iyegova guvohlarini davlat ruxsat bergan tuzilmalardan tashqarida din amallarini bajargani uchun "ekstremist" deb hisoblaydi va ularga "noqonuniy diniy faoliyat" uchun ommaviy tarzda jarima solinadi, ushlab turiladi va hibsga olinadi. Davlat idoralari ro'yxatdan o'tgan va o'tmagan xristian va xahoiy guruhlar yig'inlariga bostiruv uyushtiradi. "Forum 18"ning xabar berishicha, 2014-yilda sodir bo'lgan va ma'lum uchta holatda mahalliy amaldorlar imomlarning musulmon bo'lmagan kishilarni dunyoviy davlat qabristonlariga dafn etmaslik haqidagi qarorini qo'llab-quvvatladi. 2014-yil may oyida Samarqand viloyatida sud ijrochilari diniy faoliyati uchun sud jarima to'lashni rad etgan ikki nafar baptistning avtomobilini musodara qildi.

2014-yil may oyida politsiya va soliq sogasi amaldorlari Toshkent shahridagi protestantlar yuritgan narkomaniya va alkogolizm rehabilitatsiyasi markaziga reytd uyushtirib, uni yopdi va 20 kishini u yerdan haydab chiqardi. Markaz muassisi Vladislav Sekanga go'yo moliyaviy jinoyatlari uchun jinoiy ayb qo'yildi; o'qituvchi Pyotr Tixomirov "noqonuniy" ravishda diniy matnlarni saqlagani uchun jarimaga tortildi. Ikkovi ham Toshkentning To'liq Injil Presveterian cherkoviga qatnaydi. 2014-yil iyunida oilasi bilan mamlakatni tark etgan Sekanning "Forum 18"ga aytishicha, uning ayblanishi turli protestant cherkovlarini bir ittifoqqa birlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan. O'sha oyda ro'y bergan boshqa bir voqeada esa, politsiya Samarqand shahridagi bir adventistning uyiga reytd uyushtirdi; xabarlarga ko'ra, ular iyuldagi ro'yxatdan o'tish uchun topshirilgan ariza uchun o'ch olish maqsadida diniy matnlar va kompyuterlarni musodara qildi. Davlat nazoratidagi ommaviy axborot vositalari ozchilikni tashkil qiluvchi diniy guruhlarga nisbatan salbiy munosabatni rag'batlantiradi va missionerlarni diniy ekstremistlar bilan tenglashtirdi.

**Diniy materillarni cheklash:** Din ishlari bo'yicha kengash (DIK) diniy materiallarni senzura qiladi. Din haqidagi qonun ruxsat berilmagan diniy materiallarni import qilish, saqlash, ishlab chiqarish va tarqatishni taqiqlaydi. Xabar qilinishicha, diniy jamoalarning a'zolari politsiya reydlari davomida musodaradan qo'rqib, muqaddas matnlarini yo'q qiladi. 2013-yilda bir DIK rasmiysining "Forum 18"ga bergan bayonotiga ko'ra, o'zbek qonunchiligi diniy matnlarni faqat ro'yxatdan o'tgan diniy guruhlar binolari ichida o'qish imkonini beradi. 2014-yil may oyida Toshkent shahridagi sud er-xotinga ular uyda diniy matnlarni "noqonuniy saqlagani" uchun jarima soldi va kitoblarni yo'q qilishni buyurdi. Boshqa holatda, politsiya musodara qilingan matnlarni qaytarish haqidagi sud buyrug'ini e'tiborsiz qoldirdi. 2014-yil iyul oyida toshkentlik bir baptist Bibliya bandlari bor plakatlarini chop etgandan so'ng qo'lga olingan edi; sud uning mulkni yo'q qilish va jarimaga tortishni buyurdi. 2014-yil avgustida Navoiy shahrida politsiya baptistlar uyini ular ibodat qilayotgan paytda ordersiz tintuv qildi, boshqa baptistning uyidan barcha diniy matnlarni tortib oldi va nasroniy matnlarni saqlamaslik haqida ogohlantirdi. Shuningdek, hukumatning qo'lida taqiqlangan xalqaro, xususan, inson huquqlari va diniy erkinlik bo'yicha veb-saytlarning keng ro'yxati bor.

**Diniy ta'lim va sayohatga oid cheklovlar:** Diniy ta'limni rasman ruxsat etilgan diniy maktablarda davlat ruxsat bergan muallimlar berishi mumkin va faqat oltita ro'yxatdan o'tgan diniy jamoa sakkizta qonuniy ro'yxatdan mintaqaviy filialga ega bo'lish haqidagi talabni bajara

oldi. 2013-yilda bir ayol 12 yoshli o'g'lining "noqonuniy" diniy ta'limi uchun jarimaga tortildi; u ikki nafar Protestantdan san'at sohasida saboq olgan edi. Xususiy diniy ta'lim jazolanadi. 2010-yilda islom dini o'qituvchisi Mehriniso Hamdamova ayollarga islomiy ta'lim bergani uchun yetti yillik qamoq jazosiga hukm qilindi; avval xabar qilinganidek, u hali ham tibbiy yordamga muhtoj. Shuningdek, hukumat diniy maqsadlardagi halqaro safarlarni cheklaydi va bunday sayohati taqiqlangan kishilarning uzun ro'yxati mavjud.

### **AQSh siyosati**

O'zbekiston Markaziy Osiyoning aholisi eng ko'p mamlakati bo'lib, Markaziy Osiyodagi qolgan to'rt sobiq Sovet respublikasi va Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Sovet davrida qurilgan Rossiya bilan bog'lovchi mintaqaviy temir yo'l tizimining markazida turadi. Ushbu markazda joylashgani sababli, so'nggi yillarda AQShning O'zbekistondagi siyosati Afg'onistondagi AQSh va xalqaro kuchlarni ta'minlash yo'li bo'lgan Shimoliy Taqsimlash Tarmog'ida (ShTT) ushbu mamlakatning egallagan muhim o'rniga qaratilgan. O'zbekiston ShTT tugunidir, ammo ba'zan hamkorlik qilmaydi. O'zbekistonning ShTTdagi o'rnini 2015-yilda AQSh jangovar kuchlarining qaytishi tezlashtirilishi sababli muhim bo'lib qoladi.

Kongress 2004-yilda davlat kotibi O'zbekiston inson huquqlari borasidagi majburiyatlarini bajarishi, ko'ppartiyali tizimni barpo etish hamda ozod va adolatli saylov o'tkazish masalalarida sezilarli rivojlanishni amalga oshirgani haqida hisobot berguniga qadar AQShning O'zbekiston hukumatiga yordam berishini taqiqladi. 2004-yildan beri AQShning O'zbekistonga berayotgan yordami demokratik islohotlarda siljish yo'qligi sababli to'xtatilgan edi. Kongress 2008-yilda O'zbekistondagi 2005-yilgi Andijon voqealari yoki boshqa inson huquqlari buzilishi hollari uchun javobgar deb hisoblangan mansabdor shaxslarining AQSh hududiga kirishini taqiqlovchi qonun qabul qildi.

Ammo so'nggi yillarda harbiy yordam oshdi. Xabarlarda aytilishicha, 2009-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston "ayrim hollarda" o'z hududida aksilterror amaliyotlariga ruxsat berdi. Kongress 2010-yilda O'zbekiston uchun kengaytirilgan harbiy ta'lim va o'qitish dasturlariga ruxsat berdi. Davlat departamenti 2012-yilda din erkinligining keskin cheklangani, tinimsiz qiynoqlar va 2005-yilgi Andijon voqealari mustaqil tergov qilinmagani singari bir qancha inson huquqlarini baholash bilan bog'liq tashvishli holatlarga qaramay, milily xavfsizlik nuqtai nazaridan O'zbekistonga olti oy harbiy yordamni berishni ma'qul topdi. Bunday yordam chegara qo'shinlarini o'qitish va ehtimol harbiy anjomlar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha davlat kotibi yordamchisi o'rinbosari Dan Rosenblum 2015-yil yanvar oyida "Amerika ovozi" (VOA) radiosiga bergan intervyusida O'zbekiston 2014-yilda "Ortiqcha mudofaa jihozlari" dasturi doirasida mamlakatning aksilterrorchilik va narkotiklarga qarshi kurash harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun AQSh-ning minalarga chidamli va zirhli ortiqcha harbiy transport vositalarini olganini aytdi.

AQSh 2009-yilda har bir Markaziy Osiyo davlati bilan Yillik ikki tomonlama maslahatlashuvlar (YITM) o'tkazdi. Eng so'nggi AQSh-O'zbekiston YITM 2014-yil dekabrda Toshkent shahrida amalga oshirildi. AQSh delegatsiyasiga Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha davlat kotibi yordamchisi Nisha Desai Biswal boshchilik qildi. DKYoO' Rosenblumning "Amerika

Ovozi” radiosiga bildirishicha, muhokama etilgan inson huquqlari masalalari qamoq sharoiti, mahbuslarga bo‘lgan munosabat, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari, mehnat huquqlari va diniy erkinlik bo‘yicha cheklovlarni o‘z ichiga olgan. Rosenblumga ko‘ra, YITM birinchi marta qamoqxona sharoitlari masalasida NNT ishtirokidagi davra suhbatini ham o‘z ichiga oldi. U, shuningdek, USCIRF xodimlariga AQSh delegatsiyasi alohida diniy va siyosiy mahbuslarni ozod qilishga da’vat qilganini ma’lum qildi.

Davlat Departamenti 2006-yildan beri O‘zbekistonni uning tizimli, ashaddiy, davom etayotgan diniy erkinlik buzilishlari sababli “Алоҳида ташвиш уйғотадиган мамлакат” yoki ATUM deb belgilab keladi. ATM belgilovi so‘nggi marta 2014-yil iyul oyida yangilandi. Davlat departamenti o‘zining ATUM belgilovi oqibatida har qanday harakatdan noma’lum vaqt mobaynida voz kechish siyosatini davom ettirdi va ma’lum qilishicha, IRFA-ning 407-bo‘limiga ko‘ra, bunday voz kechish “Qo‘shma Shtatlarning muhim milily manfaatlariga”ga mos keladi.

## Tavsiyalar

AQSh hukumati O‘zbekistonni ATUM (CPC) sifatida e’tirof etishni davom etish tavsiyasidan tashqari, USCIRF AQSh hukumati quyidagilarni amalga oshirishi kerak deb hisoblaydi:

- 

IRFA-ning 405 (c) bandiga ko‘ra, O‘zbekiston hukumati bilan ushbu mamlakatni ATUM ro‘yxatidan chiqarish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar masalasida majburiy shartnoma imzolashni tashkil etish ustida ishlash; agar muzokaralar muvaffaqiyatsiz bo‘lsa yoki O‘zbekiston shartnomadagi majburiyatlarini bajarmasa, 2009-yil yanvaridan beri ATUM deb belgilanish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday avvalgi voz kechishlarni bekor qilish va IRFA qonun hujjatlarida belgilangan sanksiyalarni qo‘llash;

- O‘zbekiston hukumati diniy erkinlik sharoitini yaxshilash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga rioya qilish, jumladan, 1998-yilgi din haqidagi qonunni isloh qilish va 2005-yildagi Andijon voqealari masalasida xalqaro tergovga ruxsat berish bo‘yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirsa, gumanitar yordam va inson huquqlari dasturlaridan tashqari AQShning yordam berishi masalasini ko‘rib chiqish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashini O‘zbekistondagi inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni tahlil etishga da’vat etish, shuningdek, EXHT kabi boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalarda masalalarni ko‘tarish, O‘zbekistonni Din yoki e’tiqod erkinligi, sud idoralarining mustaqilligi va qiynoqlar bo‘yicha BMT maxsus ma’ruzachilarining safarlariga rozilik berishga undash, safarning aniq kunlarini belgilash va bunday safar uchun to‘liq va zarur shart-sharoitlarni ta’minlash;
- AQShning diniy erkinlik va tegishli inson huquqlariga munosabati, jumladan, diniy mahbuslarni ozod qilish haqidagi chaqiriqlari, AQShning umumiy bayonotlari va O‘zbekiston rasmiylari bilan shaxsiy uchrashuvlarda ham aks ettirilishini ta’minlash uchun AQSh bayonotlari va harakatlari agentliklar orasida muvofiqlashtirilishiga erishish; AQSh elchixonasi inson huquqlari faollari bilan tegishli aloqalarni saqlab qolish

va har bir mahbus o'zining oilasi, inson huquqlari kuzatuvchilari va advokatlar bilan ko'proq ko'rishishi, tegishli tibbiy yordamga ko'proq ega bo'lishini ta'minlash uchun O'zbekiston hukumatiga bosim o'tkazish;

- Tegishli masalalar, xususan, inson huquqlari va diniy erkinlik masalalarining to'liq muhokamasiga imkoniyat berish uchun Yillik ikki tomonlama maslahatlashuvlarning ikki kun davom etishini ta'minlash;
- AQSh Radioeshittirish boshqaruvchilari kengashi "Amerika Ovozi" o'zbek xizmati va Ozod Yevropa/Ozodlik radiosining o'zbek xizmati veb-sayti, musulmonlar va demokratiyani moliyalashtirishni davom ettirishni ta'minlash hamda Ozod Yevropa/Ozodlik radiosining o'zbek xizmati ma'lumotlarini boshqa tegishli tillarga tarjima qilishni ko'rib chiqish;
- VIII Dastur doirasida (1983-yilgi "Sovet-Sharqiy Yevropa Tadqiqot va ta'lim akti" bilan tashkil etilgan) Davlat Departamentiga ajratilgan mablag'dan ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, sobiq Sovet davlatlaridagi inson huquqlari, diniy erkinlik va til o'qitish uchun foydalanish.